

KLIMAKTERIK DAVRDA AYOL ORGANIZMIDA YUZ BERADIGAN O'ZGARISHLAR TERMINOLOGIYASI

G. S. Shodmonova

*Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi
shodmonovagavhar12@gmail.com*

Tabiatdagi har qanday tirik organizm yashash jarayonida bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Masalan, nihol urug'dan unish, ildiz chiqarish, poya hosil qilish, barg va kurtak yozish hamda gullashi kabi. Inson ham tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi. U ham yashashi davomida chaqaloqlik, bolalik, o'smirlik, balog'at, reproduktivlik, klimakterik, keksalik va qarilik kabi bosqichlardan o'tadi.

Tibbiyotning ginekologiya sohasida shunday bir atama bor-ki, inson organizmida uchraydigan ko'pgina patologik kechinmalar shu davrda namoyon bo'ladi. Bu davr – klimakterik davrdir.

Quyida shu murakkab davrda kuzatiladigan o'zgarishlarni tibbiy atamalar yordamida tahlil qilishga urindik.

Klimakterik davr - (grekcha klimakter) pog'ona, o'tish davri degani. Klimakterik davr - bu davrda tuxumdonning funksiyasi asta-sekin so'na boshlaydi va to'liq to'xtaydi. Jinsiy yetuklik funksiyasining to'liq tugashigacha bo'lgan davr.

Klimaks – klimakterik davrga xos bo'lgan tibbiy atama, tashxis.

Menopauza - oxirgi menstruatsiyadan keyin bir yil davomida hayz ko'rmasa menopauzani bildiradi.

Perimenopauza 45-55 yosh klimakterik simptomlarning birinchi belgilari paydo bo'ladi hayz siklining o'zgarishi, issiq quyilishi, xavotirlik, estrogen yetishmaslik holati bu menstruatsiya tugashiga 2 yil qolguncha davom etadi.

Postmenopauza – hayzni 2 yil davomida bo'lmasligidan 65-69 yoshga qadar bo'lgan davr hisoblanadi.

Ginekomastiya – erkaklar klimaksida ko'krak bezlarining kattalashishi.

Oligoamenoreya – klimakterik davrda hayz qonining kam kelishi.

Libido – klimakterik davrda ishqiy maylning susayishi.

Katarakta - klimakterik davrda ko'z gavharining xiralashishi, ko'rish o'tkirligining buzilishi.

Osteoporoz – klimakterik davrda suyak sistemasi metabolizmining o'zgarishi, suyaklar dag'allashuvi.

Alsgeymer kasalligi – klimakterik davrda oliy ruhiy faoliyatning kuchayib boruvchi buzilishlari.

Ishemiya – klimakterik davrda mahalliy kamqonlik, biror bir tuqimaning qonga yolchimasligi.

Insult – klimakterik davrda bosh miyada qon aylanishining o'tkir buzilishi.

Gipogonodizm – klimakterik davrda jinsiy gormonlarning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan kasallik holati.

Gipokalsimiya – klimakterik davrda qonda kalsiy miqdorining kamayishi.

Gipertoniya – klimakterik davrda qon bosimining yuqori bo‘lishi.

Gipotoniya – klimakterik davrda qon bosimining past bo‘lishi.

Gipertermiya – klimakterik davrda tana haroratini me’yordan oshib ketishi, tana qizishi.

Gipotermiya – klimakterik davrda tana haroratining me’yordan past bo‘lishi, junjikish.

Aritmiya – klimakterik davrda yurak qisqarishlari maromining buzilishi.

Ateroskleroz – qon tomir devorlariga xolestirin yog‘larinig cho‘kishi.

Bulimiya – doimo ovqat yeyish istagida yurish, eb tuymaslik.

Yuqorida sanab o‘tilgan tibbiy atamalarning deyarli barchasi xoh u erkak , xoh ayol bo‘lsin barchasida kuzatilishi mumkin. Bu davrni boshqarish esa insonning o‘ziga, uning irodasiga bog‘liq bo‘ladi. Bu davrdan yengil o‘tishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi.

1. Sog‘lom turmush tarzi.
2. Ratsional ovqatlanish.
3. Tibbiy bilim va tibbiy madaniyat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmonova, G. S. (2024). GLOBAL TIBBIYOT TERMINLARINING INNOVATSION TADQIQI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 136-139.
2. Shodmonova, G. S. (2024). BOLALARGA TIBBIY VA TARBIYAVIY KOMILLIK TUSHINCHALARINI O‘RGATISH. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 140-148.
3. Shodmonova, G. S. (2024). HOMILADORLAR FIZIOLOGIYASINI INTEGRASIYA ORQALI O‘RGATISH USULLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 103-106.
4. Shodmonova, G. S. (2022). Uzbek Interpretation of Global Medical Terms. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 1(9), 246-248.
5. YA.N. Allayorov. “Akusherlik”. Toshkent, 2008.
6. M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova. “Ginekologiya”. Toshkent, 2007.
7. M.A.Fozilbekova, X.S.Zaynitdinova. “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi”. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2004.
8. N.E.Kretova, L.M.Smirnova. "Akusherlik va ginekologiya" . Toshkent “Ibn Sino” nomidagi nashriyoti, 1991.
9. I.Z.Zokirov. "Normal akusherlik", Samarqand, 1994.
10. I.Z.Zokirov. "Patologik akusherlik", Samarqand, 1994.
11. V.I.Bodyajina, “Akusherlik”, Meditsina, 1984.
12. Faxriddin o‘g‘li F. M. DUNYO TA’LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR.. //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 190-193.
13. Fakhridinov, M. The impact of modern technology on education. Fan va ta’lim integratsiyasi jurnali, 165-170.
14. Fakhridinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. Fan va ta’lim integratsiyasi jurnali, 165-170.

15. Ya.N.Allayorov. “Reproduktiv salomatlik va kontratseptiv texnologiya”, Toshkent, “Istiqlol” nashriyoti, 2005.
16. Ya.N.Allayorov, D.K.Tosheva, D.U.Yusupova. “Normal akusherlik”, Samarkand, 2007.
17. Ya.N.Allayorov, D.K.Tosheva, D.U.Yusupova. “Patologik akusherlik” , Samarkand, 2007.